

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

<b>X.Mamajonov</b>	
Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtaсидаги дипломатик муносабатларнинг манбашунослигига доир айrim fikr-mulohazalar .....	113
ADABIYOTSHUNOSLIK	
<b>X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova</b>	
Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari .....	118
<b>A.Abduraxmonov</b>	
Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati .....	122
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	127
<b>N.Karimova</b>	
Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi .....	134
<b>P.Ro'ziboyeva, B.Karimov</b>	
Abdulhamid Cho'lon hikoyalarda ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi .....	138
<b>N.Avazov</b>	
"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi.....	143
<b>Sh.Axmedova</b>	
Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari.....	151
<b>N.Soatova</b>	
Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati .....	155
<b>Sh.Turg'unov</b>	
Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida .....	162
TILSHUNOSLIK	
<b>Sh.Iskandarova, F.Musayeva</b>	
Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir.....	168
<b>D.Ganiyeva</b>	
Turli tizimdagи tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunktionalligi.....	171
<b>Sh.Amonturdiyeva</b>	
Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari.....	176
<b>N.Xoshimova</b>	
Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi .....	184
<b>M.Hojiyeva</b>	
Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida .....	187
<b>V.Giyosova</b>	
Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar .....	190
<b>S.Ahmadaliyeva</b>	
Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida.....	193
<b>H.Saipova</b>	
Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari .....	197
MATEMATIKA	
<b>T.Ergashev, D.Urinboyeva</b>	
Ikkinchи tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida.....	201
<b>B.Kadirkulov, M.Jalilov</b>	
Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagи tenglama uchun qo'yilgan teskari masala .....	209
<b>N.Murolimova</b>	
Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lgin tenglamasi uchun chegaraviy masala .....	214
<u>FIZIKA - TEXNIKA</u>	
<b>X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov</b>	
Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	223
<b>M.Abdullahayeva, Sh.Shuxratov</b>	
Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishnig pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	228

**BILVOSITA GAPLARNING TURLI MADANIYATLARDA IFODASI****ВЫРАЖЕНИЕ НЕПРЯМОЙ РЕЧИ В РАЗНЫХ КУЛЬТУРАХ****EXPRESSION OF THE INDIRECT SPEECH IN DIFFERENT CULTURES****Xoshimova Nargiz Abdullayevna****Xoshimova Nargiz Abdullaevna**

– Farg'ona davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bilvosita nutqning turli madaniyatlarda qo'llanilish masalalari atroficha bayon etildi. Bilvosita nutq tahlilida analitik va tasviriy metodlardan foydalanildi. Bilvosita nutqlar pragmalingvistikaning o'rganish ob'ekti bo'lib, gapning implitsit ifodalanishi va tinglovchi tomonidan izohlanishini namoyon etadi. Alohiba e'tibor turli tillarda gender nutqidagi implitsitlik tushunchasiga ham qaratildi.

**Аннотация**

В данной статье обсуждаются вопросы использования непрямой речи в разных культурах. При исследовании непрямой речи использовались дескриптивный и аналитический методы. Являясь объектом прагмалингвистики, непрямая речь включает имплицитность и его понимание со стороны адресата. Особое внимание также уделяется имплицитности в гендерной речи, что проявляется в разных языках неодинаково.

**Abstract**

The given article touches upon the issues of usage of indirect speech in different cultures. In the analyses of the indirect speech the analytical and descriptive methods were used. As the object of pragmalinguistics, the indirect speech involves the implicitness and its understanding by the addressee. The special attention is given to the implicitness in gender speech and its distinguishing features.

**Kalit so'zlar:** bilvosita nutq, implitsitlik, yashirin ma'no, ko'chma ma'no, gender nutqi, nutq aktlari.

**Ключевые слова:** непрямая речь, имплицитность, скрытый смысл, непрямой смысл, гендерная речь, речевые акты.

**Key words:** indirect speech, implicitness, hidden sense, indirect sense, gender speech, speech acts.

**KIRISH**

Ma'lumki, erkak va ayollar tili fonetik, morfologik, leksik va sintaktik jihatdan farqlanadi. Erkak va ayollar nutqi farqlanishi hamda ularning farqi tilning turli qatlamlarida ifodalanishi g'arb tilshunoslar tomonidan atroficha bayon etilgan. O'zbek tilshunoslida ham nutqning bu xususiyatiga qator tilshunos va tadqiqotchilar o'z e'tiborini qaratgan. Mazkur maqolada nutqda erkak va ayollar o'z fikrni turlicha ifoda etishi va so'zlovchining niyatini turlicha tushunishi ta'riflanadi. Shu bilan birga, turli millatlarda bilvosita nutqiy aktlarning erkak va ayollar tomonidan ifodalanishiga e'tibor qaratiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita gaplar turli olim va tilshunoslarning e'tiborini tortgan. To'g'ridan-to'g'ri, ya'ni asl ma'no beruvchi gapning ifoda plani muloqotda ifodalangan ma'noga tenglashadi. Asl ma'no beruvchi muloqot turi semiotik muloqot tizimining vositalari orqali amalga oshadi. Asl ma'no beruvchi gaplar muloqotning ma'lumot-kod modeli asosida amalga oshiriladi [2].

Bilvosita, ya'ni ko'chma ma'no beruvchi gaplarning ifodasida faqat til qoidalariga yondashish yetarli emas. Bilvosita gaplar tilchi va olimlarning e'tiborini tortib, matn mazmunini ifodalovchi implitsitlik, shama hamda evfemizm, kinoya, so'z o'yini, metafora kabi turli uslubiy vositalar orqali ifodalangan. V.V.Dementev E.Benvenist fikriga tayanib, tilning turli vositalari orqali ifodalangan ko'chma ma'no beruvchi gaplarni til kategoriyalari emas, balki muloqot kategoriyalari orqali izohlash o'rinnligini ta'kidlaydi [2]. Shu bilan birga, ko'chma ma'no beruvchi gaplar nazariyasi til rivojida universal hisoblanishi va muloqot jarayonida inson asl ma'no beruvchi gaplardan faqat ko'chma ma'no beruvchi gaplar samarasizligida foydalaniishi izohlangan [2].

Qator tadqiqotchilar suhbat davomida bilvosita nutq aktlaridan foydalish shaxsning til va nutq kompetensiyalari rivojlanganligini ko'rsatishini ifodalagan. Xususan, rus olimasi O.S.Issers, shaxs nutqdagi implitsit, ya'ni yashirin ma'nolar ushbu shaxsning til kompetensiyalarining yuqori

## TILSHUNOSLIK

darajada rivojlanganligini namoyon etishini ta'kidlaydi [3]. D.Syorl bilvosita nutqiy aktlarni bitta ma'no beradigan, lekin boshqa ma'noda tushuniladigan gaplar sifatida ta'riflaydi. Bilvosita gaplar tadqiqiga hozirgi kunda katta e'tibor qaratiladi. Jumladan, bilvosita, ya'ni ko'chma ma'no nutqiy aktlarning pragmatik jihatdan talqiniga D.Syorl, V.G.Gak, R.B.Shilenko kabi tadqiqotchilar o'z e'tiborini qaratgan [6; 1; 9].

Mazkur maqolada nutqiy aktlar nazariyasidagi yashirin ma'no beruvchi gaplar masalasi atroficha talqin etildi. Jumladan, yashirin ma'no beruvchi gaplarning turli millat vakillari tomonidan ifodalanishi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida tasviriy va analitik metodlardan unumli foydalanildi. Turli millatlarning fikrlashi va bilvosita nutqlar nazariyasini tahlil qilish uchun nutq aktlari masalasiga bag'ishlangan qator maqola va ilmiy tadqiqotlarga yondashildi.

### NATIJA VA TAHLILLAR

Fikr to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ifodalanadi. Bilvosita nutq turli stilistik vositalar, implikatura, ishoraviy gaplar hamda shama orqali vujudga keladi. Bunda erkak va ayol ongi va tafakkuri qanday ifodalanadi, erkak va ayollar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita fikr yuritadimi, degan savollarga biz javobni qidirishga harakat qildik.

Bilvosita nutqlarni tahlil qilar ekanmiz, bunda biz g'arb va sharq ongini ta'riflashga, g'arb va sharq millatlarining to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita fikrlashini kuzatamiz. Turli millatlarning bilvosita fikrlash yoki to'g'ridan-to'g'ri ma'no ifodalashiga e'tibor qaratishimizdan tashqari biz ushbu millatlarga tegishli erkak va ayollarning fikrlash tafovutlarini aniqlashga harakat qildik.

Erkak va ayol turli madaniyatga kirishadi. Bu madaniyat esa kichik yoshdan boshlanadi. Muloqot o'rnatishda o'g'il bolalar o'zining qobiliyatini, nimaga qodirligini ko'rsatishga harakat qiladilar, qizlar esa muloqotda yaqin munosabatlar o'rnatishga yoki munosabatlarni qayta tiklashga intiladilar. Jamiyatda ikki turli madaniyat xosil bo'ladi. Psixologlar ushbu ikki madaniyat vakillari bir biri bilan kommunikativ aloqa o'rnatganda turli nizolar, tushunmovchiliklar vujudga kelishini tasdiqlagan. Gender stereotipini belgilashda D.Tannen ham ikki madaniyat vakillarining fikrlashi, tafakkuri turlichaligini isbotlab, bir necha ilmiy asarlarida bayon qilgan [8; 5].

D.Tannen ayol va erkaklar tilining ko'chma va to'g'ri ma'noda qanday tarzda ifodalanishini yuzaga chiqarish maqsadida amerikalik kishilar va grek millatiga mansub kishilarning nutqini tekshirib, tajriba o'tkazdi. Buning uchun ularga turli dialoglar taqdim etildi va ushbu dialoglarning to'g'ri yoki ko'chma ma'noda izohlanishi tekshirildi. Grek erkak va ayollari er-xotin o'tasidagi olib borilgan dialogik nutqni ko'chma ma'noda izohladilar, ya'ni dialogda ikkinchi, yashirin ma'no qidirishga urindilar. Amerikalik erkak va ayollar esa xuddi shu dialogik nutqni bitta ma'noda, ya'ni to'g'ri ma'noda tushundilar. Ushbu millatlarning fikrlashidan tashqari, tadqiqotchi amerikalik erkak va ayollar, grek erkak va ayollar o'tasidagi fikrlash farqini ham kuzatdi. Bundan kelib chiqdiki, amerikalik ayollar amerikalik erkaklardan ko'ra gapda ko'proq ikkinchi, yashirin ma'no qidirishadi; grek erkak va ayollar javoblarining o'tasidagi farq ko'zga tashlanmadı.

Psixologlar ifodalashicha, amerikalilar gapni to'g'ri ma'noda tushunadi, ruslar esa gapni ikki xil, ya'ni to'g'ri va ko'chma ma'noda ifodalaydi, sharq millatlari gaplarda yashirin va ko'chma ma'no qidiradi. Shu bois, biz turli dialoglar orqali sharq va g'arb ongi, tafakkurining tilda ifodalanishiga e'tibor qaratdik.

D.Syorlga asosan, bilvosita nutq aktlari so'zlovchining nafaqat bitta ma'no, balki ikkinchi, yashirin ma'noni nutqda ifodalashi mumkinligini ta'riflaydi [6; 5]. Bilvosita nutq aktida bitta illokutiv akt ikkinchi illokutiv akti orqali amalga oshishi ko'rsatiladi. Bilvosita nutqiy akt o'z ichiga ikkita illokutiv aktlarni qamrab oladi. Bularni D.Syorl birlamchi va ikkilamchi illokutiv aktlar deb nomlaydi. Birlamchi illokutiv akt so'zlovchining asl niyatini namoyon etadi. Ikkilamchi illokutiv akt birlamchi illokutiv aktni amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, ikkita illokutiv nutqiy akt turlicha ifodalanadi:

1. Kitobni olib keling.
2. Kitobni olib kelasizmi?

Birinchi gapda buyruq ifodalanib, so'zlovchining niyati eksplitsit tarzda, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshadi. Ikkinchi gapimplitsit tarzda, ya'ni so'zlovchi niyatini bilvosita bildiradi. Bu gap ikkita illokutiv aktlardan iborat bo'lib, birlamchi akt so'zlovchining iltimosini (eshikni ochib qo'yish), ikkilamchi nutqiy akt savol tarzda kelib, birlamchi nutqiy aktni amalga oshirishga yordam beradi [6; 7].

CH.Suitsing bilvosita nutqiy aktlarni ifodasida rus va xitoy xalqining fikr yuritishini ta'riflab, xitoyliklarning so'roq gap shaklida iltimosga berilgan javobini kuzatamiz:

Rus: Idish yuvish vositasini olib kela olasanmi?

Xitoylik: Menga kerak emas[7].

Bu dialogda xitoy millatiga mansub kishi rus kishi tomonidan ifodalagan nutqiy aktni faqat bir tomonini anglatdi, ya'ni so'roq gap orqali ifoda etilgan ikkilamchi nutqiy aktni qabul qildi, lekin birlamchi nutqiy aktni – iltimosni tushuna olmadi.

Psixologlar tadqiqotlarda ayollar o'z nutqida yashirin ma'nolardan ko'p foydalanishini ta'kidlagan. Buni biz psixolog M.G.Merkun misoli orqali izohlaymiz: er va xotin avtomobilda ketishmoqda. Ayol chanqaganligini sezib, erkakka murojaat qildi:

Ayol: Chanqamadingizmi, birorta ichimlik ichishni xohlaysizmi?

Erkak: Yo'q[4].

Mazkur gapda ayol o'z niyatini yashirin tarzda beryaptiki, u turli illokutiv aktlari orqali amalga oshmoqda. Ayol o'z xohishini ikkita savol *chanqamadingizmi, ichimlik ichishni xohlaysizmi* orqali ifoda etmoqda. So'zlovchining niyati shama orqali, implitsit tarzda berilib, nutqiy aktni amalga oshiradi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, pragmalingvistikada bilvosita gaplar implitsitlik, ya'ni yashirin tarzda turli nutqlarda ifodalanadi.

### XULOSA

Implitsitlik nutq aktlarida turli tadqiqotchilar tomonidan atroficha o'rganilgan. Tilshunoslikda implitsitlik nazariyasini tadqiq qilish va turli xalq kishilarning mentalitet, fikrlash jarayoni hamda tafakkur va ong farqini ta'riflash bugungi dolzarb masalalaridan biri deb hisoblanadi. Ushbu tarzda turli millat va elatga mansub insonlarning muloqot jarayonida bir birini tushunishi engillashadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гак В.Г. Человек в языке // Логический анализ языка. Образ человека в культуре и языке. М., 1999.(Gak V.G. Chelovek v yazike // Logicheskiy analiz yazika. Obraz cheloveka v culture i yazike.)
2. Дементьев В.В. Непрямая коммуникация.–М.:Гнозис, 2006. – 560с. (Dementev V.V. Nepryamaya kommunikatsiya.–M.:Gnozis, 2006. – 560s.)
3. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи . – Омск 2002 . – 360 с.
4. Меркун М.Г.Гендерплект, как ключ к пониманию, почему мы говорим одно, а ожидаем разного? [b17.ru/article/83039](http://b17.ru/article/83039)
5. Падучева, Е. В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью / Е. В. Падучева. – М. : Наука, 1985. – С.63 (Paducheva, E. V. Vyiskazывanie i ego sootnesennost s deystvitelnostyu / E. V. Paducheva. – M. : Nauka, 1985. – S.63)
6. Серль Дж. Что такое речевой акт?//Новое зарубежной лингвистике Вып. 16. – М.: Прогресс, 1985. – С. 163-200.
7. Суцинг Ч. Косвенный речевой акт в языке повседневного общения китайских и русских студентов//Труды молодых учёных. (Suitsing Ch. Kosvenniy rechevoy akt v yazike povsednevного obsheniya kitayskix i russkix studentov//Trudi molodikh uchyonikh).
8. Tannen D. That's not what I meant: How conversational style makes or breaks your relations with others. NY., 1986.
9. Шиленко Р.В. Прямые и косвенные экспрессивные высказывания в аспекте регулирования межличностных отношений // Языковое общение и его единицы. Калинин, 1986. (Shilenko R.V. Pryamiye i kosvenniye ekspressivniye viskazivaniya v aspekte regulirovaniya mejlichnostnikh otnosheniy // Yazikovoye obsheniye i ego edinitsi. Kalinin, 1986.)